BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

RAXIMOVA NODIRA KAMOLOVNA

BADIIY MATNDAGI INTERTEKSTUALLIKNING TARJIMADA VOQELANISHI: FUNKSIONAL-PRAGMATIK ASPEKT

10.00.06 – Qiyosiy-adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha
falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 811.111'255.2+811.512.133'255.2

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Raximova Nodira Kamolovna
Badiiy matndagi intertekstuallikning tarjimada voqelanishi: funksional-pragmatik aspekt 5

Nodira Kamolovna Rakhimova
The Realisation of Intertextuality In the Translation of Literary Text: Functional-Pragmatic Aspect 22

Рахимова Нодира Камоловна
Реализация интертекстуальности в художественном тексте при переводе: функционально-прагматический аспект 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ 48

HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

RAXIMOVA NODIRA KAMOLOVNA

BADIIY MATNDAGI INTERTEKSTUALLIKNING TARJIMADA VOQELANISHI: FUNKSIONAL-PRAGMATIK ASPEKT

10.00.06 – Qiyosiy-adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha
falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fil1988 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz, (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Qosimova Nafisa Farhodovna** filologiya fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Rajabov Dilshod Zaripovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Axmedov Oybek Saporbayevich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universitetida huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «____»_____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-29-14, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” _____kuni tarqatildi.
(2026-yil “___”_____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

O.M.Fayzulloyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.R.Ochilova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), professor

Z.Q.Amonova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyoti, tilshunosligi va tarjimashunosligi sohalarida badiiy matnlardagi intertekstuallik hodisasining tarjimada voqelanishini funksional-pragmatik yondashuv asosida o‘rganish zamonaviy ilmiy paradigmalar doirasida dolzarb hisoblanadi. Intertekstuallik matnning ko‘p qatlamli semantik tuzilishini shakllantirib, turli matnlar o‘rtasidagi aloqalar orqali ma’no kengayishini ta’minlab, muallifning estetik va kommunikativ niyatlarini ifodalar ekan, uning tarjimasi nafaqat lingvistik ekvivalentlikni, balki matnlararo ishoralarning chuqur interpretatsiyasini ham talab etadi. Intertekstuallikning madaniy konnotatsiyalari milliy va madaniy tafovutlarni hisobga olishni talab qiladi va bu tarjimada pragmatik adekvatlikni ta’minlash masalasini dolzarb etadi. Natijada, intertekstuallikni to‘g‘ri qayta yaratish matnning semantik va madaniy yaxlitligini saqlashga xizmat qiladi.

Dunyo tarjimashunosligida globallashuv sharoitida intertekstual birliklarni tarjimada qayta yaratish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunday birliklarning kognitiv-semantik xususiyatlari, madaniy konnotatsiyalari va kommunikativ vazifalarini saqlash tarjimonlardan matnlararo aloqalarni to‘g‘ri talqin qilish hamda funksional muqobillarni tanlashni talab etadi. Mazkur jarayonda intertekstual mazmunning to‘liq anglanmasligi yoki uning pragmatik xususiyatlarining o‘zgarishi badiiy matnning estetik ta’siri va madaniy mazmuniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois intertekstual birliklarning tarjimada voqelanish mexanizmlarini funksional-pragmatik aspektda tahlil qilish, tarjima strategiyalarini tanlashga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda tarjima adekvatligini ta’minlash mezonlarini ilmiy asoslash muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda ilm-fan, ta’lim va tarjimashunoslikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar sharoitida badiiy matnlardagi intertekstuallikni funksional-pragmatik yondashuv asosida o‘rganish, uning tarjimada madaniy-konseptual qatlamlarni qayta kodlash va interpretatsiya qilish xususiyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy vazifalardan biridir. Xususan, Harakatlar strategiyasida belgilangan ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash va innovatsion faoliyatni takomillashtirish kabi ustuvor vazifalar o‘zbek tarjimashunosligidagi tadqiqotlar salohiyatini oshirish hamda ularning natijalarini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish zaruratini kuchaytirmoqda[1]. Shu nuqtai nazardan, intertekstual ishoralarning lokutiv va illokutiv funksiyalarini aniqlash, estetik-pragmatik ta’sirini saqlash tarjima sifatining muhim omilidir. Intertekstuallikni adekvat qayta yaratishga qaratilgan bunday yondashuv kognitiv, pragmatik va antropotsentrik paradigmalar integratsiyasini kuchaytirib, tarjimani murakkab madaniy-kommunikativ hodisa sifatida talqin etish hamda o‘zbek tarjimashunosligining nazariy-metodologik salohiyatini kengaytirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Xalq so‘zi. – 2017-yil, 8-fevral. – № 28 (6722).

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Intertekstuallik tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikda keng o‘rganila boshlandi. Jahon adabiyotshunosligida intertekstuallik hodisasi atroflicha o‘rganilgan. Jumladan, intertekstuallikning nazariy asoslari, intertekstual aloqalarni tasniflash va turkumlash, xususan matnlararo muloqot masalalari J.Kristeva, M.M.Baxtin, R.Bart, M.Riffaterre, O.Yakobson, N.A.Fateyeva, G.Genet singari bir qator xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan[2] Tarjima va intertekstual aloqalar bilan bog‘liq muammolar esa R.Bart, M.Ren, R.Leppihalme, B.Hatim va I.Mason kabi olimlarning tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan[3].

Shuningdek, intertekstual unsurlarning namoyon bo‘lish shakllari, ularning badiiy matn tarjimasida uzatilishi, intertekstual birliklarning badiiy matn tilining

[2] Kristeva J.Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. – New York: Columbia University Press, 1980. – 305 p.; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Советский писатель, 1963. – 361 с.; Barthes R. S/Z / translated by R.Miller. – New York: Hill and Wang, 1974. – 271 p.; Барт Р. От произведения к тексту // Барт Р. Избранные работы: Семиотика: Поэтика. – Москва: Прогресс, 1989. – С. 413–423; Riffaterre M.Text Production. – New York: Columbia University Press, 1983. – 279 p.; Якобсон Р.О. Лингвистика и поэтика // Структурализм: «за» и «против» / под ред. Е.Я.Басина, М.Я.Полякова. – Москва: Прогресс, 1975. – С. 193–230.; Женетт Ж. Палимпсесты: литература во второй степени. – Линкольн: Издательство Университета Небраски, 1997. – 490 с.; Фатеева Н.А. Интертекст в мире текстов: контрапункт интертекстуальности. – Москва: КомКнига, 2006. – 280 с.; Фатеева Н., Паршин П. Интертекстуальность // Кругосвет: универсальная научно-популярная энциклопедия. – URL: https://www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye_nauki/lingvistika/INTERTEKSTUALNOST.htmlhttps://www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye_nauki/lingvistika/INTERTEKSTUALNOST.html

[3] Барт Р.Избранные работы: Семиотика: Поэтика / перевод с французского; составление, общая редакция и вступительная статья Г.К.Косикова. – Москва: Прогресс, 1989. – 616 с.; Leppihalme R.Culture Bumps: An Empirical Approach to the Translation of Allusions. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 241 p.; Hatim B., Mason I.Discourse and the Translator. – London: Longman, 1990. – 258 p.

rivojlanishidagi ahamiyati hamda ularning badiiy matnlarni tarjima qilish jarayonlariga “to‘sqinlik” qilishi bilan bog‘liq masalalar mustaqil ravishda va tarjimashunoslik kontekstida O.I.Moskalskaya, Y.M.Lotman, V.V.Odinsov, I.R.Galperin, V.E.Chernyavskaya, G.V.Denisova, N.A.Kuzmina, A.A.Guseva, S.Alekseyeva singari taniqli olimlar tomonidan nazariy jihatdan o‘rganib chiqilgan[4].

O‘zbek tilshunosligi va tarjimashunosligida matn nazariyasi shakllanishi va rivojlanishi asnosida N.M.Turniyozov, Sh.Safarov, B.Yo‘ldoshev, A.Mamajonov, E.Qilichev, M.Hakimov, M.Yo‘ldoshev hamda S.Boymirzayeva, R.Yusubova, M.Xomidova, Z.O‘rinova, D.Xoshimova kabi olimlar olib borgan tadqiqotlarda badiiy matnlardagi intertekstual birliklarning tarjimadagi roli va ularni ifodalash usullari bilan bog‘liq masalalar tadqiqot obyektiga aylangan[5].

Mazkur dissertatsion ishda badiiy matnlardagi intertekstual birliklarning funksional xususiyatlari, mazkur birliklarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik, kognitiv va lingvomadaniy muammolar o‘rganilgan. Shuningdek, intertekstual birliklarning estetik ta’siri va pragmatik vazifasini tarjimada saqlash masalalari, ularni qayta yaratishda qo‘llaniladigan tarjima strategiyalari va usullarining ahamiyati tahlil qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrasining “Adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjima ishi” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi badiiy matndagi intertekstuallikning tarjimada voqelanishini funksional-pragmatik aspektda o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

badiiy matnda intertekstuallik hodisasining nazariy evolyutsiyasi va matnlararo munosabatlarning ilmiy asoslarini belgilash;

badiiy matndagi intertekstual birliklarning tarjimada qayta yaratilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi madaniy va kognitiv omillarni aniqlash hamda tarjimonning intertekstual ma’noni anglash va qayta ifodalash jarayonidagi rolini ochib berish;

---

[4]Москальская О. И.Грамматика текста: пособие по грамматике немецкого языка для институтов и факультетов иностранных языков. – Москва: Высшая школа, 1981. – 183 с.; Лотман Ю. М.Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970. – 384 с.; Одинцов В. В.Стилистика текста. – Москва: Наука, 1980. – 263 с.; Гальперин И. Р.Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981. – 139 с.; Чернявская В. Е.Интертекстуальное взаимодействие как основа научной коммуникации. – Санкт-Петербург: Издательство Санкт-Петербургского государственного университета экономики и финансов, 1999. – 209 с.; Денисова Г. В. В мире интертекста: язык, память, перевод. – Москва: Азбуковник, 2003. – 298 с.; Кузьмина Н. А.Интертекст и его роль в процессе формирования поэтического языка. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. – 272 с.; Вербицкая М. В., Гусева А. А.Проблема перевода интертекстуальных элементов: категориальный подход // Вестник Московского университета. Серия 19: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2009. – № 2. – С. 9–18; Алексеева И. С.Введение в переводоведение. – 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Академия, 2008. – 368 с.

[5] Турниёзов Н.Матн лингвистикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2003. – 86 б.; Сафаров Ш., Тоирова Г.Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, 2007. – 39 б.; Йўлдошев Б.Матнни ўрганишнинг лингвостатистик методлари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. – 117 б.; Мамажонов А.Текст лингвистикаси. – Тошкент: ТошДПИ нашри, 1989. – 112 б.; Қиличев Э.Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро: БухДУ нашри, 2000. – 36 б.; Ҳакимов М.Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 176 б.; Йўлдошев М.Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.; Боймирзаева С.Матн модаллиги. – Тошкент: Фан, 2010. – 152 б

intertekstual birliklarning tarjimasida qo‘llaniladigan tarjima strategiyalari va usullarini tizimlashtirish, ularni tanlashga ta’sir qiluvchi omillarni belgilash;

badiiy matndagi intertekstual birliklarning funksional-pragmatik imkoniyatlarini ochib berish va ularni tarjimada adekvat qayta ifodalash usullarini asoslash;

intertekstual birliklarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni yechishning optimal usullarini tizimli ravishda aniqlab berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida T.Drayzerning “An American Tragedy”, E.Hemingveyning “The Old Man and the Sea”, O.Uayldning “The Picture of Dorian Gray”, J.Oruellning “Animal Farm”, U.Shekspirning “Hamlet”, S.Moemning “The Moon and Sixpence”, A.K.Doylning ‘The Boscombe Valley Mystery’, “The Five Orange Pips”, “The Man with the Twisted Lip” asarlari va ularning o‘zbek tiliga bevosita amalga oshirilgan tarjimalari, shuningdek, Z.M.Boburning “Boburnoma”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, A.Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar: qissa va hikoyalar” kabi asarlar, ularning ingliz tiliga bevosita amalga oshirilgan tarjimalari va mazkur asarlardagi intertekstual birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini badiiy matndagi intertekstual birliklarni tarjimada voqelantirishning funksional-pragmatik aspektlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarjimaviy, funksional-pragmatik, intertekstual, kontekstual-semantik hamda miqdoriy-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

badiiy matnlardagi intertekstuallikning tarjimada voqelanishi jarayonida intertekstual ishoralarning implitsit va eksplitsit qatlamlari muallifning kommunikativ maqsadi, madaniy kodlar hamda estetik niyatlari bilan uzviy bog‘liqligi va ularning to‘g‘ri identifikatsiyasi tarjimada semantik yaxlitlikni ta’minlashga xizmat qilishi dalillangan;

badiiy diskursdagi intertekstuallik birliklarining tarjima jarayonida qayta yaratilishi matnlararo aloqalarning kognitiv-semantik tabiati, interdiskursiv o‘zaro ta’sirlar hamda madaniyatlararo konnotatsiyalarning funksional transformatsiyasi bilan belgilanib, ularning adekvat uzatilishi tarjimonning interpretativ kompetensiyasiga bevosita bog‘liqligi isbotlangan;

intertekstuallik hodisasining tarjimada voqelanishida funksional-pragmatik yondashuvning ustuvorligi aniqlangan bo‘lib, formal ekvivalentlik, moslashtirish, izohli tarjima hamda eliminatsiya kabi tarjima usullarining birlamchi xarakteri hamda intertekstual ishoralarning kommunikativ vazifasini saqlashda kontekstual adekvatlikning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan;

badiiy matndagi intertekstuallikni tarjimada qayta tiklash jarayonida uning implitsit madaniy, estetik va pragmatik qatlamlarini saqlash, shuningdek, lokutiv va illokutiv funksiyalarni kontekst asosida qayta modellashtirish tarjimaning funksional to‘laqonliligini ta’minlovchi asosiy strategiya ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot davomida ingliz va o‘zbek tillari badiiy matn tarjimalarida ishlatilgan intertekstual birliklar tasniflanib, ularning tarjima usullari, semantik yuklamasi va funksional-pragmatik roli asosida yaratilgan taksonomik model badiiy matnlarni

tarjima qilish amaliyotida intertekstual birliklarni turlarga ajratish hamda ularni mos usullar orqali tarjima qilishga xizmat qilishi aniqlangan;

ingliz va o‘zbek tillari badiiy matnlarida intertekstuallik hodisasi voqelanishining funksional hamda pragmatik xususiyatlarining amalda qo‘llanish natijalari umumlashtirilgan, olingan natijalardan esa “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” fanida madaniy tafovutlarni o‘rganishda tahliliy misollar sifatida foydalanish, matnshunoslik, intertekstuallik nazariyasi, madaniyatlararo muloqot, stilistika, diskurs tahlili fanlari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish, chog‘ishtirma tilshunoslik hamda pragmalingvistika sohalariga oid seminar mashg‘ulotlarni yangi nazariy qarashlar bilan boyitishi va ularning rivoji uchun foydali bo‘lgan o‘ziga xos ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qilishi aniqlangan;

tadqiqot asosida o‘quvchilar va tarjimonlar madaniy kontekstni anglash, tanqidiy tahlil qilish va intertekstual ishoralarni ilg‘ash orqali badiiy matnlarni chuqurroq tushunishlari va ularning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma’lumotlarning fundamental konsepsiyalariga asoslanganligi va ilmiy adabiyotlarning yetarlicha boyligi, mavjud badiiy matnlardan saralab olingan real intertekstual birliklarning qiyosiy tahlillarning aniq misollar, kontekstual tafsilotlar hamda intertekstual birliklarning turlari bo‘yicha puxta tizimlashtirilganligi, qo‘llanilgan barcha tahlil usullarining tadqiqot maqsadiga mosligi, olingan ilmiy xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati intertekstual birliklarning turlarini aniq tasniflash, ularning tarjima jarayonidagi semantik, stilistik, funksional va pragmatik o‘zgarishlarini ochib berish orqali tarjima nazariyasiga muhim hissa qo‘shishida, badiiy matn tarjimasida intertekstuallikning rolini ochib berish orqali tarjimashunoslik, matnshunoslik va lingvopragmatika sohalari o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlovchi nazariy asos yaratishga, tillararo intertekstual birliklarni tahlil qilishga doir yaratilgan taksonomik model boshqa tadqiqot ishlarida qo‘llash uchun nazariy platforma bo‘lib xizmat qilishga, ingliz va o‘zbek tillari badiiy matnlarining tarjimasida uchraydigan intertekstual birliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash orqali milliy matnshunoslikda qo‘shimcha ilmiy yondashuvlar kiritishga ilmiy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va o‘rta maxsus, umumta’lim tizimida til va nutq hodisalari, diskurs turlarini farqlash, badiiy nutq tahliliga erishish, adabiy manbalarning qiyosiy til tahlili bo‘yicha maxsus kurs va seminarlar o‘tish, “Diskurs tahlili”, “Kognitiv tarjimashunoslik”, “Madaniyatlararo muloqot”, “Pragmalingvistika”, “Tarjimaning pragmatik aspektlari” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida xorijiy tillarni o‘rganishga tashviqni kuchaytirish uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Badiiy matndagi intertekstuallikning tarjimada voqelanishi: funksional-pragmatik aspektning tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

badiiy matnlardagi intertekstuallikning tarjimada voqelanishi jarayonida intertekstual ishoralarning implitsit va eksplitsit qatlamlari muallifning kommunikativ maqsadi, madaniy kodlar hamda estetik niyatlari bilan uzviy bog‘liqligi va ularning to‘g‘ri identifikatsiyasi tarjimada semantik yaxlitlikni ta’minlashga xizmat qilishi bilan bog‘liq ilmiy xulosalardan 2021-2023-yillarda “Musiqa va san’at o‘quv muassasalari uchun “Bolalar raqslari” fanidan interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish” mavzusidagi F3-2019081773-raqamli fundamental loyiha doirasida “O‘zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha qisqacha izohli lug‘ati”ni yaratishda foydalanilgan. (Musiqa va san’at o‘quv muassasasining 2025-yil 13-iyundagi 1/04-261-son ma’lumotnomasi). Natijada, bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlariga oid terminlarning tarjimasida asliyat va tarjima matnlari o‘rtasidagi kommunikativ, funksional hamda pragmatik ta’sir mutanosibligi ta’minlangan.

intertekstuallik hodisasining tarjimada voqelanishida funksional-pragmatik yondashuvning ustuvorligi aniqlangan bo‘lib, formal ekvivalentlik, moslashtirish, izohli tarjima hamda eliminatsiya kabi tarjima usullarining birlamchi xarakteri hamda intertekstual ishoralarning kommunikativ vazifasini saqlashda kontekstual adekvatlikning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligiga doir nazariy xulosalardan Toshkentdagi AQSh Elchixonasi tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80021IN3103-raqamli loyiha doirasida tashkil etilgan “Amerika adabiyoti klubi”da o‘tkazilgan Jon Steynbek, Frensis Skott Fitsdjerald va Ernest Xeminguey kabi Amerika yozuvchilarining adabiy mahorati tahliliga bag‘ishlangan ilmiy-ijodiy tadbirlarda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 18-iyundagi 06/3904-son ma’lumotnomasi). Natijada, klub ishtirokchilarining badiiy matnlar orasidagi semantik, estetik, kontekstual, madaniy hamda pragmatik yashirin bog‘liqliklarni anglash hamda ularni asliyat va tarjima kontekstlarida to‘g‘ri talqin qilish haqidagi bilimlar bazasini yanada kengaytirishga asos bo‘lib xizmat qilgan;

badiiy matndagi intertekstuallikni tarjimada qayta tiklash jarayonida uning implitsit madaniy, estetik va pragmatik qatlamlarini saqlash, shuningdek, lokutiv va illokutiv funksiyalarni kontekst asosida qayta modellashtirish tarjimaning funksional to‘laqonliligini ta’minlovchi asosiy strategiya ekanligi bilan bog‘liq ilmiy xulosalardan Navoiy viloyati telekanalida efirga uzatilgan “Assalom, yangi kun” teleko‘rsatuvida unumli foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “Navoiy viloyati teleradiokanali” davlat muassasasining 2025-yil 12-iyundagi 01-10/86-son ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu teleko‘rsatuv uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo‘lishiga erishilgan va ko‘rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan 5 ta xalqaro va 3 ta respublika konferensiyalarida qilingan ma’ruzalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish e’lon qilingan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 8 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 tasi

xalqaro va 6 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqotning asosiy hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Badiiy matnda intertekstuallik kategoriyasi ifodalanishining ilmiy-nazariy asoslari va badiiy matn tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan. Unda badiiy matnning lingvopoetik tabiati intertekstual ochiqligi, intertekstuallik nazariyasining tarixiy-evolyutsion rivoji, intertekstual birliklarning tipologiyasi hamda ularni tarjima qilishning lingvomadaniy, kognitiv va pragmatik asoslari yaxlit tizimda tahlil qilingan.

Tadqiqotda badiiy matnning asosiy lingvopoetik belgilari sifatida obrazlilik, emotsional-ekspressivlik, ko‘p ma’nolilik, ramziylik, individuallik, estetik yo‘nalganlik va pragmatik ta’sirchanlik ajratilgan. R.Yakobsonning[6] poetik funksiya, M.Riffaterrening kutilmaganlik va badiiy ta’sir[7], M.Yo‘ldoshevning[8] badiiy matn lingvopoetikasi haqidagi qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, badiiy matnda til birliklari faqat nominativ vazifani emas, balki muallifning individual-estetik pozitsiyasi va badiiy konsepsiyasini ifodalash vazifasini ham bajarishi asoslangan

Tahlil natijalari badiiy matnning intertekstual ochiqligi uning muhim tabiiy xususiyatlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Badiiy matn boshqa badiiy, folklor, diniy, tarixiy, mifologik va madaniy matnlar bilan bevosita yoki bilvosita aloqaga kirishib, ulardan muayyan mazmuniy va funksional komponentlarni o‘zlashtiradi. Natijada alluzion birliklar, iqtiboslar, reminissensiya, tazmin va parodiya kabi intertekstual hodisalar yuzaga keladi. Shuningdek, tadqiqot doirasida intertekstual birlikning mazmuni uning lisoniy shakli bilangina emas, balki pretekst, muallif niyati, madaniy xotira va o‘quvchining presuppozitsiyasi bilan bog‘liq holda shakllanishi aniqlangan. Shu sababli badiiy matn tarjimasida nafaqat denotativ mazmun, balki obrazlilik, stilistik bo‘yoq, madaniy assotsiatsiya va intertekstual aloqaning funksional-pragmatik ta’sirini qayta yaratish zarurligi asoslangan.

Intertekstuallik nazariyasining shakllanishi va nazariy rivojlanishi, shuningdek, matnlararo munosabatlarning ilmiy asoslari tizimli tahlil qilingan. Intertekstuallikning nazariy ildizlari M.Baxtinning dialogizm va polifoniya

[6] Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation // On Translation / ed. by R. A. Brower. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1959. – P. 232–239.
[7] Riffaterre M. Text Production. – New York: Columbia University Press, 1983. – 279 p.
[8] Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2009.

konsepsiyasi[9] hamda Y.Kristevaning intertekstuallik nazariyasi[10] bilan bog‘liq holda yoritilib, matnning boshqa matnlar va diskurslar bilan doimiy muloqotda bo‘luvchi ochiq tizim ekanligi asoslangan.

Tadqiqotda, shuningdek, R.Bartning “muallif o‘limi”, M.Fukoning “mualliflik funksiyasi”, J.Derridaning dekonstruktiv yondashuvi va G.Jenetning transtekstual tasnifi tahlil qilinib[11], mazkur konsepsiyalarning intertekstuallikning semantik, madaniy va diskursiv tabiatini ochib berishdagi metodologik imkoniyatlari aniqlangan. Y.Lotmanning madaniy semiotika yondashuvi, U.Ekoning ochiq matn va o‘quvchi kompetensiyasi haqidagi qarashlari hamda D.Lixachyovning madaniy va tarixiy xotira konsepsiyasi intertekstual aloqalarni faqat lingvistik hodisa emas, balki madaniy kod sifatida talqin qilish imkonini bergan[12].

Intertekstuallikning keng va tor modellari qiyosiy tahlil qilinib, keng modelda har qanday matn boshqa matnlar bilan aloqador holda shakllanishi, tor modelda esa muallif tomonidan muayyan pretekstga ongli ravishda murojaat qilinishi asoslangan. Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, aniq pretekstga ega intertekstual birliklarni qamrab oluvchi tor model metodologik tayanch sifatida qabul qilingan. Shuningdek, intertekstual birliklarni aniqlashda pretekstning mavjudligi, semiotik o‘xshashlik, uslubiy yoki semantik ajraluvchanlik, manbani identifikatsiya qilish imkoniyati va pretekstga havola funksiyasi asosiy mezonlar sifatida belgilangan.

Intertekstual aloqalarning umumiy modellarini belgilashda J.Kristeva, B.Hatim va I.Meyson, L.Jenni, H.Plett, J.Jenet, V.E.Chernyavskaya va M.L.Malaxovskaya qarashlari qiyosiy tahlil qilingan[13]. Y.Kristevaning gorizontal va vertikal intertekstuallik, Hatim va Masonning faol va passiv intertekstuallik, L.Jenni hamda H.Plettning kuchli va zaif intertekstuallik haqidagi qarashlari matnlararo munosabatlarning turli darajalarini aniqlashga xizmat qilgan. J.Jenetning transtekstual munosabatlar tasnifi esa intertekstual aloqalarning strukturaviy va transformatsion xususiyatlarini yoritishga imkon bergan[14].

Intertekstual birliklarni aniqlashda T.E.Litvinenkoning besh mezoni – pretekst elementining mavjudligi, semiotik o‘xshashlik, semantik yoki uslubiy

---

[9] Baxtin M. M. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Советский писатель, 1963. – 361 с.

[10] Kristeva J. Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. – New York: Columbia University Press, 1980. – 305 p.

[11] Barthes R. The Death of the Author // Image, Music, Text / trans. by Stephen Heath. – London: Fontana Press, 1977. – P. 142–148; Foucault M. Language, Counter-Memory, Practice: Selected Essays and Interviews / ed. by D. F. Bouchard; trans. by D. F. Bouchard and S. Simon. – Ithaca: Cornell University Press, 1977; Derrida J. Of Grammatology / trans. by G. C. Spivak. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1976; Genette G. Palimpsests: Literature in the Second Degree / trans. by C. Newman and C. Doubinsky. – Lincoln: University of Nebraska Press, 1997 (original work published in 1982).

[12] Lotman Yu. M. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970; Eco U. The Role of the Reader: Explorations in the Semiotics of Texts. – Bloomington: Indiana University Press, 1984; Likhachyov D. S. Поэтика древнерусской литературы. – Ленинград: Художественная литература, 1971.

[13] Kristeva J.Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. Oxford: Blackwell, 1980; Hatim B., Mason, I.Discourse and the Translator. – London: Longman, 1990; Jenny L.The Strategy of Forms // Poetics Today. – 1982. – Vol. 3, No. 1. – P. 5–15; Plett H.R.Intertextuality and the Literary Text: Theories and Practices. – Tübingen: Niemeyer, 1991; Чернявская В.Е.Лингвистика текста: Поликодовость, интертекстуальность, интердискурсивность. – Москва: Либроком, 2009. – 248 с; Малаховская М.Л.Интертекстуальные связи в художественном тексте в сопоставительно-переводоведческом аспекте (на материале произведений К.С.Льюиса): дис. канд. филол. наук: 10.02.20. – СПб., 2007. – С. 15–30.

[14] 14.Genette G. Palimpsests: Literature in the Second Degree / trans. by C. Newman and C. Doubinsky. – Lincoln: University of Nebraska Press, 1997. – 490 p. (Original work published in 1982).

ajraluvchanlik, manbani identifikatsiya qilish imkoniyati va pretekstga havola funksiyasi – asosiy mezon sifatida qabul qilingan[15]. Shu asosda aniq pretekstli (verifikatsiyalangan) va implitsit birliklar farqlangan. Mazkur mezonlar asosida tadqiqotning asosiy tahlil obyektlari sifatida allyuziya, iqtibos, tazmin, reminissensiya va parodiya ajratilgan. Natijada intertekstual birliklarni tashqi o‘xshashlik asosida emas, balki pretekstning aniqligi, verifikatsiya imkoniyati va funksional-pragmatik yuklamasi asosida tasniflash keyingi tarjima tahlilining metodologik sharti sifatida belgilangan.

Badiiy tarjimaning murakkabligi muallifning individual uslubi, asarning tarixiy-adabiy konteksti, til vositalarining xilma-xilligi va badiiy-estetik vazifalar bilan bog‘liqligi, tarjimaning nazariy tamoyillari va intertekstual birliklarni tarjima qilishda yuzaga keladigan lingvomadaniy, kognitiv va pragmatik muammolar V.N.Bazilyov, T.A.Kazakova, V.N.Komissarov, A.Y.Kuznetsov, K.Rays, V.V.Sdobnikov, Y.P.Solodub va A.V.Fyodorov[16] qarashlari asosida ko‘rib chiqish tarjimaning asosiy mezoni sifatida asliyatning semantik, stilistik, estetik, milliy-madaniy va kommunikativ xususiyatlarini, xususan, uning emotsional-estetik ta’sirini qayta yaratish zarurligi asoslaydi. Intertekstual birliklar birlikning denotativ, konnotativ va pragmatik ma’nolari, shuningdek, pretekst bilan bog‘liq madaniy-bilim yuklamasini birgalikda qayta yaratish zarurati yuzaga keladi. Intertekstual birliklarni tarjima qilishda M.L.Malaxovskayaning uch bosqichli modeli – aniqlash, tushunish va qayta yaratish muhim metodologik asos sifatida qabul qilingan. Mazkur model tarjimon avvalo intertekstual birlikni aniqlashi, uning pretekst bilan aloqasi va funksional yukini anglab yetishi, so‘ngra ushbu aloqani maqsad tilida yoki uning funksional muqobili orqali qayta yaratishi zarurligini ko‘rsatadi.

B.Hatim va I.Meysonning faol va passiv intertekstuallik haqidagi qarashlari ham tarjima strategiyasini belgilashda muhim mezon sifatida qo‘llangan. Faol intertekstuallik tashqi manbaga ochiq murojaatni yuzaga keltirib, ko‘pincha izoh yoki moslashtirishni talab qilsa, passiv intertekstuallik minimal o‘zgarish bilan uzatilishi mumkin. Nazariy qarashlarning amaliy ifodasi Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi *Dovud payg‘ambar* allyuziyasi va Ch. Fort tarjimasi misolida ko‘rsatilgan. Tarjimada *Prophet David* nomining saqlanib, unga diniy-madaniy izoh berilishi maqsad tilidagi o‘quvchining bazaviy bilimini to‘ldirish hamda intertekstual birlikning denotativ va konnotativ qatlamlarini saqlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot ishining 2-bobi **“Badiiy matn kontekstida intertekstual**

[15] Литвиненко Т.Е. Интертекст и его лингвистические основы (на материале латиноамериканских художественных текстов): автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Иркутск: ИГЛУ, 2008. – 34 с.

[16] Базылев В.Н.Внерациональное постижение языка // Язык и мышление: Психологические и лингвистические аспекты. – Пенза: Пензенский ГПУ им. В.Г.Белинского, 2004; Казакова Т.А.Художественный перевод. Учеб.пособие. – Санкт-Петербург: Знание, 2002. – 112 с.; Комиссаров В.Н.Современное переводоведение. – Москва: Валент, 2011. – 408 с.; Кузнецова А.Субъективная модальность художественного текста: онтологический статус в авторской концепции мира // Вестник Балтийского федерального университета им. И.Канта. Серия: Филология, педагогика, психология. № 4. – Калининград, 2020. – С. 5–14; Райс К.Классификация текстов и методы перевода // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – Москва, 1978. – С. 202–228; Сдобников В.Перевод и коммуникативная ситуация. Монография. – Москва: Флинта, 2015. – 461 с.; Солодуб Ю. П.Теория и практика художественного перевода: учеб. пособие для студ. лингв. фак. вузов / Ю. П.Солодуб, Ф. Б.Альбрехт, А.Ю.Кузнецов. – Москва: Академия, 2005. – 116 с.

birliklarning tarjima usullari va ularning funksional-pragmatik mohiyati” mavzusiga bag‘ishlangan. Unda intertekstual birliklarning tarjimada adekvat uzatilishi kognitiv va lingvomadaniy omillarning o‘zaro uyg‘unligi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Intertekstual birliklar muallifning estetik konsepsiyasi, madaniy xotirasi va individual dunyoqarashini aks ettirishi bilan birga, o‘quvchining avvalgi bilimlari, xotirasi va assotsiativ tafakkurini faollashtiruvchi kognitiv vosita sifatida talqin etilgan.

Tadqiqotda tarjimonning intertekstual birlikni anglash jarayoni “aniqlash→ tushunish → qayta yaratish” tamoyili bilan bog‘langan. Bunda tarjimonning intertekstual sezgisi, xotira mexanizmlari, assotsiativ tafakkuri hamda adabiy va madaniy bilimlari muhim omil sifatida belgilangan. Shuningdek, E.A.Guttning relevans nazariyasi asosida intertekstual birlikni tarjima qilish faqat leksik transfer emas, balki maqsad til o‘quvchisining kognitiv kontekstini moslashtirish jarayoni ekanligi asoslangan[17].

Madaniy aspekt tahlili intertekstual birliklarning tarixiy xotira, diniy qarashlar, milliy qadriyatlar va adabiy an’analar bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan. Masalan, S.Moemning “The Moon and Sixpence” romanidagi *“Mercure de France”* nomi fransuz adabiy-madaniy muhitiga oid intertekstual birlik sifatida namoyon bo‘ladi: *“It was not till four years after Strickland’s death that Maurice Huret wrote that article in the Mercure de France which rescued the unknown painter from oblivion and blazed the trail which succeeding writers, with more or less docility, have followed”*[18]. Uning o‘zbek tarjimasida *“Merkyur de Frans”* shaklida berilishi nomning milliy-madaniy xususiyatini saqlashga xizmat qilgan: *“Striklend vafotining to‘rt yilligi arafasida Moris Gyurening “Merkyur de Frans”da e‘lon qilingan maqolasi bu rassomni unutilib ketishdan saqlab qoldi. Ko‘pgina taniqli adabiyotchilar Gyure ochgan so‘qmoqdan yurishdi”*[19]. Biroq bunday formal saqlash maqsad tilidagi o‘quvchining ushbu nom bilan bog‘liq tarixiy-adabiy bazaviy bilimlariga ega bo‘lishini talab etadi.

Madaniy bilimlar asimmetriyasi Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani va Ch. Fort tarjimasi misolida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Asliyatdagi *“Ovozi Dovud payg‘ambarniki singari”*[20] ifodasi ingliz tilida *“Like the Prophet David, they say...”* tarzida saqlanib, Prophet David haqida izoh berilgan: *“In Islam, the Prophet David, or Dawud, is said to have been a great singer”*[21]. Natijada, tarjimon maqsad til o‘quvchisida yetishmaydigan diniy-madaniy bilimini qo‘shimcha izoh orqali to‘ldirib, intertekstual birlikning denotativ va konnotativ qatlamlarini saqlashga erishgan.

Tadqiqotda A.A.Gusevaning tasnifi asosiy analitik model sifatida qabul qilinib, formal ekvivalentlik, moslashtirish, izohli tarjima va eliminatsiya asosiy strategiyalar sifatida ajratilgan[22]. R.Leppihalme, P.Newmark, E.A.Nayda hamda

[17] Gutt E. A. Translation and Relevance: Cognition and Context. – Oxford: Blackwell, 1991.
[18] Maugham W. S. The Moon and Sixpence. – New York: The Modern Library (George H. Doran Company), 1919. – P. 8.
[19] Moem S. Oy va sariq chaqa: roman / rus tilidan R. Inog‘omov tarjimasi. – Toshkent, 2008. – 1 b.
[20] Cho‘lpon. Kecha va kunduz. 1-kitob: Kecha. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 2000. – 62 b.
[21] Cho‘lpon. Night and Day / trans. by Christopher Fort. – Boston: Academic Studies Press, 2020. – (Central Asian Literatures in Translation series). – P. 97.
[22] Guseva A. A. Интертекстуальность как переводческая проблема (на материале романа Дж. Джойса «Улисс» и его перевода на русский язык): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2009. – С. 16.

B.Hatim va I.Meyson qarashlari esa mazkur strategiyalarni tanlash mezonlarini izohlovchi qo‘shimcha nazariy asos sifatida qo‘llangan[23]. Transliteratsiya esa mustaqil strategiyadan ko‘ra, asosan atoqli otlar, tarixiy-mifologik nomlar va boshqa madaniy birliklarning shaklini saqlashga xizmat qiluvchi yordamchi usul sifatida baholangan.

Moslashtirish strategiyasiga J.Sviftning “Gulliver’s Travels” asaridagi *“Man-Mountain”* va *“Quinbus Flestrin”* birliklari misol bo‘la oladi. Asliyatdagi *Man-Mountain* qo‘shma oti o‘zbekcha tarjimada *“Ulkan odam”* tavsifiy ot birikmasi orqali berilgan: *“Ulkan odam kamzulining o‘ng cho‘ntagidan...”.*[24]. Bunda ingliz tilidagi qo‘shma otning strukturaviy shakli saqlanmagan, balki uning mazmuniy komponentlari o‘zbek tilining leksik-grammatik me’yorlariga moslashtirilgan. Shu bilan birga, asliyatdagi *Quinbus Flestrin* birligi “Kuinbus Flestrin” shaklida fonetik o‘zlashtirish yo‘li bilan saqlanib, qavs ichidagi izoh orqali uning Man-Mountain bilan semantik aloqasi ochib berilgan. Mazkur tarjima yechimida moslashtirish va o‘zlashtirish strategiyalari o‘zaro uyg‘unlashadi: *Man-Mountain → Ulkan odam* shaklidagi moslashtirish birlikning mazmunini maqsad tilida tabiiy va tushunarli ifodalashga xizmat qilsa, Quinbus Flestrin → Kuinbus Flestrin shaklidagi fonetik o‘zlashtirish manba matnga xos begona nomning milliylashtirilgan fonetik ko‘rinishda saqlanishini ta’minlaydi. Qavs ichidagi izoh esa ushbu ikki birlik o‘rtasidagi referensial-semantik munosabatni tiklab, o‘quvchiga intertekstual signalni anglash imkonini beradi.

Eliminatsiya hodisasi U.Shekspirning “Hamlet” tragediyasidagi *“Neptune’s empire”* birikmasining M.Shayxzoda tarjimasida intertekstual komponenti saqlanmagan holati orqali yoritilgan.

Disasters in the sun; and the moist star,
Upon whose influence Neptune’s empire stands,
Was sick almost to doomsday with eclipse[25].

Tarjimada umumiy poetik-semantik mazmun saqlangan, ammo Neptun bilan bog‘liq antik mifologik pretekst yo‘qolgan. Shu sababli formal mazmunning qisman saqlanishiga qaramay, intertekstual referensial qatlam neytrallashgan.

Dog‘lar paydo bo‘lganmish, quyoshda, oy ham
Qiyomat bo‘lg‘usiday qorayib qolgan,
Shunday yomon ofatdan, falokatlardan[26].

Qiyosiy tahlil natijasida strategiya tanlovi intertekstual birlikning turi, pretekstning tanilganligi, madaniy masofa, o‘quvchi kompetensiyasi, janr va kommunikativ maqsad bilan belgilanib, amaliyotda strategiyalar ko‘pincha o‘zaro uyg‘unlashishi aniqlangan.

Shuningdek, mazkur bobda intertekstual birliklarning badiiy matndagi funksional va pragmatik imkoniyatlari, ularni tarjima qilish jarayonida yuzaga

[23] Leppihalme R. Translation Strategies for Allusions // Multi-media Translation: Concepts, Practices, and Research / ed. by Y. Gambier and H. Gottlieb. – Amsterdam: John Benjamins, 2001. – P. 139–150; Newmark P. A Textbook of Translation. – Hertfordshire: Prentice Hall, 1988. – P. 81–91; Nida E. A. Language and Culture in Translating. – Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2001. – 168 p.

[24] Svift J. Gulliverning sayohatlari: roman / tarj. Sotiboldi Yuldoshev. – Toshkent: SMI-ASIA, 2009. – 18 b.

[25] Shakespeare W. The Tragedy of Hamlet, Prince of Denmark [Elektron resurs]. – Folger Shakespeare Library. – URL: http://www.folgerdigitaltexts.org/ – P. 16.

[26] Shekspir U. Hamlet: tragediya / ingliz tilidan M. Shayxzoda tarjimasi. – Toshkent: Baktriya Press, 2012. – 8 b.

keladigan semantik va kommunikativ muammolar tahlil qilingan. Intertekstual birliklar badiiy matnda nafaqat ma’no hosil qiluvchi va estetik tuzilmani shakllantiruvchi vosita, balki muallif → tarjimon → o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikativ munosabatni boshqaruvchi pragmatik birlik sifatida talqin etilgan.

Intertekstuallikning dalillovchi va pragmatik funksiyasi A.Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” asaridagi Chexovga murojaat misolida tahlil qilingan. Asliyatdagi *“Bundan meni Anton Pavlovich Chexov domla xabardor qildilar... Bir tomonda Anton Pavlovichning temir yo‘l gaykalarini burab olgan “yovuz niyatli kishi”si, ikkinchi tomonda... “battol o‘g‘ri”– Babar! Bular zamona daraxtida yetishgan olmaning ikki pallasi edi.”*[27] mazmuni Ch.Fort tarjimasida *“Only Anton Pavlovich Chekhov has taught me the skills to access them...”*[28] tarzida berilgan. Mazkur murojaat lokutiv darajada adabiy manbaga ishora qilsa, illokutiv darajada Qahhorning o‘z ijodiy uslubini Chexov realizmi bilan bog‘lash va uni himoya qilish vazifasini bajaradi; perlokutiv darajada esa kitobxonda muallif ijodiga nisbatan ishonch va hurmatni kuchaytiradi.

Pragmatik tarjima muammolari presuppozitsiyalarning yo‘qolishi, illokutiv buzilishlar va perlokutiv asimmetriya ko‘rinishlarida tizimlashtirilgan. Masalan, T.Drayzerning “An American Tragedy” asaridagi *“hymn” → “oyat”* so‘zi bilan almashtirilishi natijasida protestant diniy-madaniy presuppozitsiya o‘zbek kitobxoni uchun boshqa diniy kontekst bilan almashtirilgan. O.Uayldning “The Picture of Dorian Gray” romanidagi Shekspir iqtiboslarining *(Good pilgrim, you do wrong your hand too much / Which mannerly devotion shows in this / For saints have hands that pilgrims’ hands do touch / And palm to palm is holy palmers’ kiss.)*[29] tarjimada tushirib qoldirilishi *(“Sahnada Julyettaning birinchi iboralari yangradi…”)*[30] esa intertekstual birlikning illokutiv – kontrast yaratish – funksiyasining yo‘qolishiga olib kelgan.

Natijada intertekstual birliklarning tarjimadagi pragmatik ekvivalentligi saqlanish, zaiflashish yoki kuchayish holatlarini qamrab oluvchi dinamik jarayon sifatida baholangan. Ularning adekvatligi birlikning shakliy saqlanishi bilangina emas, balki muallifning kommunikativ maqsadi, presuppozitsiyasi, illokutiv kuchi va o‘quvchida yuzaga keladigan perlokutiv ta’sirning qayta yaratilishi bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Badiiy matndagi intertekstual birliklar tarjimasida funksional ekvivalentlik”** muammolarini yoritishga bag‘ishlangan. Ushbu bobning asosiy ilmiy natijasi qiyosiy-empirik materiallar asosida intertekstual birliklar tarjimasining funksional ekvivalentligini miqdoriy va sifat mezonlari birligida baholash imkonini beruvchi yondashuvning takomillashtirilgani bilan belgilanadi. Shuningdek, mazkur bobda badiiy matndagi intertekstual birliklarning tarjimasida ekvivalentlik tamoyilining nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilib, ingliz va o‘zbek badiiy matnlari hamda ularning o‘zaro tarjimalari qiyosiy-empirik tahlilga tortilgan. Yuzdan ortiq tadqiqot materiallari

---

[27] Qahhor A. O‘tmishdan ertaklar: qissa va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 12.

[28] Fort C. Abdulla Qahhor’s Tales from the Past // SICE Blog, Austrian Academy of Sciences. – URL: https://www.oeaw.ac.at/sice/sice-blog/abdulla-qahhors-tales-from-the-past.https://www.oeaw.ac.at/sice/sice-blog/abdulla-qahhors-tales-from-the-past

29.Wilde O. The Picture of Dorian Gray [Elektron resurs]. – Freeditorial.com. – P. 64.

[30] Uayld O. Dorian Greyning portreti / ingliz tilidan O. Sharafiddinov tarjimasi. – Toshkent, 1974. – 122 b.

tarkibidan 50 dan ortiq intertekstual birliklar T.E.Litvinenko mezonlari asosida verifikatsiya qilinib, ularning tipologik xususiyatlari, tarjimada qo‘llangan strategiyalar va semantik-funksional saqlanish darajasi aniqlangan.

Tahlil natijalari intertekstual birliklarning asosiy qismini allyuziyalar tashkil etishini ko‘rsatdi. Iqtibos, reminissensiya, tazmin va parodiya kabi birliklar esa nisbatan kamroq uchrab, badiiy matnda turli darajadagi pretekstual va funksional aloqalarni yuzaga keltirishi aniqlandi. Mazkur taqsimot intertekstual munosabatlarning, avvalo, bevosita iqtibosdan ko‘ra yashirin ishora, pretsedent nom va madaniy kodlar orqali faollashishini ko‘rsatadi.

Intertekstual birlik turi	Intertekstual birlik soni	Tadqiqot materialidagi ulushi (%)
Allyuziya	40	76,92
Iqtibos	7	13,46
